



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



**ADABIYOT DARSLIKHLARI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR**

**Abdurahmonova Barno Muhammadjonovna**

*Qo'qon DU dotsenti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Milliy dastur talablari asosida yaratilgan adabiyot darsliklari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit soʻz:** *Milliy dastur, adabiyot, darslik, integratsiya, xorijiy tajriba*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются учебники литературы, созданные на основе требований Национальной программы.*

**Ключевые слова:** *Национальная программа, литература, учебник, интеграция, зарубежный опыт.*

**Annotation:** *This article discusses literature textbooks developed in accordance with the requirements of the National Program.*

**Keywords:** *National Program, literature, textbook, integration, foreign experience.*

Yurtimizda xorijiy tajribalardan foydalangan holda Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 11-maydagi farmoni bilan 2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlandi. Avvalgi o'quv dasturining mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan edi. Quvonarlisi shundaki, yangi Milliy o'quv dasturi 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat. Maqsad shuki, o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Milliy o'quv dasturni yangi tahrirdagi 6-7-sinf adabiyot darsligi misolida ko'rishimiz mumkin:

- 1) badiiy matnni mustaqil tahlil va talqin qilishga o'rgatish;
- 2) uch bosqichli yondashuv: o'qishdan oldingi, o'qish davomidagi va o'qishdan keyingi topshiriqlar;
- 3) har bir o'qishning o'z maqsadi mavjudligi kabi jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Fanlararo integratsiyada boshqa fanlardan olingan bilimlar badiiy matnni chuqurroq anglashga yordam berishi; adabiyot va boshqa fanlar integratsiyasi yozma nutq, tanqidiy va kreativ fikrlash singari muhim ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy vazifa sanalishi nazarda tutilgan.

XXI asr ko'nikmalari:

- 1) kommunikatsiya (muloqot);
- 2) muammoga echim topish;
- 3) tanqidiy fikrlash (tahlil);
- 4) kreativ fikrlash kabilarga diqqat tortilgan.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



Avvalgi o'quv dasturda baholash faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi.

6-sinf darsligiga kiritilgan A.Navoiyning kichik janrdagi asarlari bilan birga uning "Vaqfiya" asarini ham kiritish o'quvchi ma'naviyatini yanada yuksalishiga, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi mustahkamlanishiga sabab bo'lardi. Zero, ijodkorning barcha mavzudagi asarlarini o'quvchiga qanday yetkazish har doim zarur pedagogik muammo bo'lib kelgan.

Tarixdan ma'lumki, kishilik jamiyati o'ziga xos pedagogik faoliyat yo'lini bosib o'tgan. Bugunga kelib, turli ta'lim berish usullari paydo bo'lgan. Kelajagimiz vorislari bo'lmish yosh avlod har tomonlama yetuk bo'lib yetishishlari uchun pedagogik usullarga egamiz. Umumiy o'rta ta'limning (DTS)ga ko'ra, o'quvchilarga adabiyot fani bo'yicha kompetensiya va malaka talablari qo'yilgan. Mazkur talablar asosida dars mashg'ulotlarining an'anaviy va noan'anaviy turlari ta'lim oluvchining sezilarli bilim olishida qo'l keladi. Albatta, ta'limda noan'anaviy bilim berish, o'quvchini ko'chirmachilik, tayyor andozalar, taqlidchilik, belgilangan qoliplar asosida fikrlashdan yiroqlashtiradi. Shuni unutmaslik kerakki, noan'anaviy usullar o'qitish jarayonidagi muammolarni bartaraf etadigan vosita emas. Rivojlangan davlatlarning adabiyot o'qitish tajribasi o'rganilganda badiiy matnni mustaqil tahlil va talqin qilishga o'rgatish, adabiyot nazariyasiga oid tushunchalarni badiiy matn bilan bog'lab o'rganish, spiralsimon yondashuv, fanlararo integratsiya, XXI asr ko'nikmalari integratsiyasiga e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin. Bugun istemolda bo'layotgan adabiyot fani bo'yicha milliy o'quv dasturi va darsliklarda badiiy matnni mustaqil tahlil va talqin qilishga o'rgatish, uch bosqichli yondashuv: o'qishdan oldingi, o'qish davomidagi va o'qishdan keyingi topshiriqlar mavjudligi, har bir o'qishning o'z maqsadi mavjudligi unda fanlararo integratsiya kabi jihatlarga e'tibor qaratilganligi yurtimizda adabiy ta'limni ham jahon andozalariga moslashtirilayotganidan dalolatdir.

Fanlararo integratsiyada boshqa fanlardan olingan bilimlar badiiy matnni chuqurroq anglashga yordam berishi; adabiyot va boshqa fanlar integratsiyasi yozma nutq, tanqidiy va kreativ fikrlash singari muhim ko'nikmalarni rivojlantirish muhim vazifa sanaladi.

Ayniqsa, bugun mamlakatimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" shiori ostida dunyoga yuz ochayotgan, yurtimizdan etishib chiqqan ulug' zotlarning qarashlari, o'g'itlari asosida Uchinchi Renesansga tamal toshi qo'yilayotgan hozirgi davrda badiiy adabiyotda yaratgan asarlaridagi g'oyalar: bunyodkorlik va yaratuvchanlik, insonparvarlik va tinchlikparvarlikdan kuch-quvvat olib, oldinga qarab intilish yosh avlodga singdirilishida fanlararo integratsiyaning ahamiyati katta. Kelajakda ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish innovatsion rivojlanishni ta'minlaydi. Bunda darslikdan joy olgan raqamli texnologiyalar bilrn bog'liq topshiriqlarni berilishi ham ayni muddao bo'lgan. Adabiyot darsliklaridan hikoya va qissalarni to'liq matni bilan tanishish imkoniyati o'quvchi uchun



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



yaratilgan. Kitobda QK berilgan. O'quvchi o'z shaxsiy telefoni orqali asarni yuklab olish imkoniyatiga ega. Albatta, bu ta'lim samaradorligi va sifatini oshirish, o'quvchilarni bilim qobiliyatlari darajasini oshirish, axborot makonida harakat qilish, o'quvchi axborot faolligini, ommaviy axborot savodxonligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar o'quv faoliyatining barcha turlarini adabiy ta'lim jarayonida faollashtirishi mumkin: yangi materialni o'rganish, uy vazifalarini tayyorlash va tekshirish, mustaqil ishlar, test va nazorat ishlari, darsdan tashqari ishlar, ijodiy ishlar. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ko'plab uslubiy maqsadlarni samaraliroq amalga oshirish mumkin.

Ona tili darslarining o'tilishida eng ko'p murojaat qilinadigan vosita bu doskadir. Chunki o'quvchilarning yozma nutqi ona tili fani bilan shakllanadi. Shunday ekan, fanni o'qitilishi (o'rgatilishi) davomida boshqa fanlarga qaraganda doskaga ehtiyoj katta bo'lgan.

Bugun yozma savodxonlikni tekshirish jarayoniga ham interaktiv doskalar katta yordam beradi. Bu qurilmaning qulayliklari juda ko'p bo'lib, dars jarayonlarida ochilaveradi. Aytaylik, biz ba'zi so'zlarni alohida ko'rsatishimizga to'g'ri kelib qoldi. Odatda, bu so'zning tagiga bir xil rangda chizib qo'yamiz. Chunki ona tili fanida tagiga chizilgan so'z o'ziga xos vazifa bajaradi. Bu esa o'ziga xos muammolarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Interaktiv doskada bu muammoni hal qilish yo'li juda ham oson: uni qizil, sariq, oq yoki ko'k ranglarda ko'rsatsa bo'ladi.

O'quvchilar va o'qituvchilarning harflarni va so'zlarni yozuv taxtasiga muttasil yozish jarayonida taxtaning ishdan chiqish holati: xiralashuvi, g'adir-budur bo'lib ketishi, bo'ring namlanib qolishi, taxtaning yaxshi artilmaganligi dars sifatini tushirar yoki o'rganuvchilarda tushunarsiz holatni yuzaga keltirardi. Bu qurilmada esa, bunday muammoning o'zi bo'lmaydi. Sababi shundaki, uning ichki imkoniyatlari juda keng.

Odatda, yozma ish turlaridan diktantda sarlavhaga, bayon, insho matnlarida rejalar tuzilishiga alohida e'tibor qaratamiz. Matn va reja aniq, izchil, tartibli bo'lmog'i kerak. Har bir o'quvchi o'zining reja va matnini yozib berishiga to'g'ri kelsa, sakkizinchi bo'lib yozayotgan o'quvchining ishi ikkinchi o'quvchining ishiga o'xshashligini mazkur qurilma yordamida qaytadan ko'rsatib o'tishimiz ham mumkin. Birinchi betga sig'may qolgan matnning davomini ikkinchi betga yozib ketsak ham bo'ladi. Imkoniyatlari katta bo'lgan bu qurilmani ishlatish, uning darslarni samarali bo'lishini ta'minlashdagi o'rni, tushuntirish jarayonidagi qulayliklari, bir vaqtning o'zida bir nechta funktsiyani bajarishi, o'quvchilarga tushunarsiz bo'lib qolgan jihatlarni va rasmlarni yana qayta ko'rsata olishi ham e'tiborga molikdir.

Ona tili va adabiyot darslarida mavjud bo'lgan jadvallar va qoidalarni elektron doska xotirasiga saqlab qo'ysak, uni bizga kerak vaqtda, bimalol olib qayta ishlatishimiz mumkin. Bu esa yana qaytadan yozish, behuda vaqt ketkazishning oldini oladi. Interaktiv doskadan foydalanish usullari o'ziga xos ko'plab qulayliklarga ega bo'lib, dars samarasini tubdan yaxshilaydi. Uning barcha imkoniyatlarini ishga solib ishlatilsa, ayniqsa, adabiyot darslarida



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



juda qo'l keladi. Bir vaqtning o'zida bir nechta rasmlardan foydalanish, keraksiz deb hisoblangan ma'lumotlarni o'chirib, qaytadan kerak bo'lib qolganda, yana qaytarib ishlatish, rasmlarni kattalashtirish, kichraytirish, turli xil ranglarda yozish, o'quvchilarni jalb qila olish xususiyatlarini, turli ko'rinishlar va shakllarni bemalol ishlatish, misollar keltirishda juda qulay hisoblanadi.

Interaktiv doska vositasida **“Rasmi tasvir”** usulini qo'llash mashg'ulot ta'sirchanligini oshiradi. Usul quyidagicha amalga amalga oshiriladi:

- o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu mazmunini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada nimalar ifodalanganini, qanday jarayon aks etganligini izohlaydilar;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar;
- o'qituvchining bergan savollarga javob qaytaradilar.

Dars davomida “Video-topishmoq” metodidan foydalanib, adabiy ta'limda o'quvchilarga insonparvarlikni singdirishda darslikdagi asar mazmuniga mos ishlangan rasmlarni raqamli texnologiyalar asosida namoyish etish orqali amalga amalga oshirish ham ularni kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini ortishiga yaxshi motivatsiya beradi. Quyidagi rasm elektron doska orqali o'quvchilar e'tiboriga havola qilindi:



So'ngra o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

- Siz elektron doskada nimalar ko'ryapsiz?



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



- Sizningcha, ushbu surat qanday mazmunga ega?
- Bu surat tarixini ijtimoiy tarmoqlardan bilganlar bormi?

O'quvchilar ushbu savollarga javob bergandan so'ng badiiy asar matni o'qituvchi tomonidan aytilgan ovozli shaklini eshitgach, ular e'tibori elektron doskada ko'rsatilgan rasm mazmunini anglashga ko'mak bersa, asarni o'qishga bo'lgan qiziqishini ortishiga turtki beradi.

**Adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Mirzayeva Z.,Jalilov K. Adabiyot.Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. T.RTM,2022
2. Mirzayeva Z.,Jalilov K. Adabiyot.Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T.RTM,2022
- 3.Mirzayeva Z.,Jalilov K.O'zbek adabiyotni o'qitish metodikasi.Darslik.Akadem Spake,2024